
YOSHLAR DAFTARI - IMKONIYATLAR DAFTARI

Abdulaziz hunari orqali har oyda 3.5 million so'mgacha daromad topmoqda "Ahmad al-Farg'oniy" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Abdulaziz Husanov ham hunar orqali o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan yoshlarimizdan. Buyurtma asosida turli uy jihozlarini tayyorlaydi.

Abdulazizning mahalladagi yoshlar yetakchisi Taxmina Karimovaga qilgan murojaati ijobiy hal etildi. Ish jarayonida zarur bo'lgan bo'yoq sepish uskunasi subsidiya asosida ajratildi.

Yosh tadbirkor o'z mehnat qurollariga ega bo'lgach, oylik daromadi 3.5 million so'mga yetdi. Abdulaziz faoliyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishni ham rejalashtirgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-24 10:39:17